

TRANSPORT VOSITALARINING RAQAMLI MUHITIDA EKSTREMISTIK KONTENT TARQALISHIGA QARSHI KURASHISHNING MA'MURIY-HUQUQIY MUAMMOLARI

Xomidov Tursinali Adxamovich

**Toshkent davlat transport universiteti doktoranti
mustaqil izlanuvchisi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22159414>

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy transport vositalarining mustaqil axborot muhitiga aylanishi sharoitida bort Wi-Fi tarmoqlari, axborot ekranlari va multimedia tizimlari orqali ekstremistik kontent tarqalishiga qarshi kurashishning ma'muriy-huquqiy muammolari tadqiq etilgan. Bort tarmog'i orqali tarqatilayotgan axborotga provayder darajasidagi an'anaviy bloklash choralari yetib bormasligi bilan bog'liq tub muammo ochib berilgan. Transport vositalarining texnik jihozlanishi bilan protsessual tartibga solish o'rtasidagi tafovut tahlil qilinib, elektron ma'lumotlarni saqlab qolish to'g'risidagi talabnoma instituti (291³-modda), elektron dalillarni xesh-summa orqali qayd etish tartibi hamda umumiy foydalanishdagi simsiz internet tarmoqlarini taqdim etuvchi shaxslarga taqiqlangan manbalarga kirishni cheklash majburiyatini yuklash yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan. Sun'iy intellektga asoslangan monitoring tizimlarining ma'muriy-huquqiy asoslari va shaxsiy ma'lumotlar himoyasi kafolatlari asoslangan.

Kalit so'zlar: raqamli muhit, bort Wi-Fi tarmog'i, ekstremistik kontent, elektron dalillar, xesh-summa, videokuzatuv, ma'lumotlarni saqlab qolish, kontentni bloklash, sun'iy intellekt, shaxsga doir ma'lumotlar.

Zamonaviy transport vositalari tobora ko'proq mustaqil axborot muhitiga aylanib bormoqda. Vagonlar va avtobuslardagi ochiq Wi-Fi tarmoqlari, axborot ekranlari, ovoz kuchaytirish tizimlari va ko'ngilochar (infotainment) tizimlar yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish vositasi bo'lish bilan birga, ekstremistik kontentni tarqatish kanaliga ham aylanishi mumkin. Bu masalaning o'ziga xosligi shundaki, transport vositasi salonini raqamli tarqatish makoniga aylantirgan omil davlatning o'z qarori bo'lgan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-oktabrdagi PQ-5260-son qarori bilan metropoliten bekatlari va vagonlarida bepul simsiz internet tarmog'i joriy etilgan¹. Shu tariqa jismoniy va raqamli qatlamlar bitta yopiq makonda birlashgan, biroq ularning huquqiy rejimi bir-biridan ajralgan holda qolmoqda.

Transport sohasidagi ekstremistik ta'sir ikki qatlamda namoyon bo'ladi. Birinchisi – transport vositasining salonida yoki transport infratuzilmasi obyektida ekstremistik materialni tayyorlash, saqlash, tarqatish va namoyish etish orqali yuzaga keladigan jismoniy qatlam. Ikkinchisi – transport vositasida taqdim etiladigan simsiz internet ulanishi orqali ekstremistik kontentning tarqalishi bilan bog'liq raqamli muhit. Mazkur maqolaning maqsadi aynan ikkinchi – raqamli qatlamni ma'muriy-huquqiy tartibga solishning hozirgi holatini tahlil qilish, undagi bo'shliqlarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Axborot makonidagi ekstremistik yo'nalishdagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish muammosi ilmiy adabiyotlarda faol muhokama qilinmoqda. Ommaviy globallashuv va keng

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-oktabrdagi PQ-5260-son qarori. — URL: <https://lex.uz/docs/5680284>.

tarqalgan axborotlashuv sharoitida kiberekstremizmga qarshi kurash muammosi hech qachon bunday dolzarb bo'lmagan. Ekstremistik mafkuraning axborot-telekommunikatsiya tarmoqlari orqali tarqatilishi oqibatlarini kibermakon bilan chegaralanmaydi: u moddiy dunyodagi obyektlarga, jamiyat va davlat infratuzilmasining ayrim elementlariga, jumladan transport tizimiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

V.V.Baranov ichki ishlar organlarining global kompyuter tarmog'ida ekstremizm ko'rinishlariga qarshi kurashish faoliyatining huquqiy va tashkiliy asoslarini tadqiq etgan². R.R.Kardanov axborot muhitida ekstremizmga qarshi kurashishning dolzarb muammolarini tahlil qilgan³, A.V.Opalev esa zamonaviy axborot texnologiyalarini ekstremistik va terroristik tashkilotlar faoliyatining quroli sifatida baholagan⁴. A.V.Korolchuk Internet tarmog'i orqali ekstremizm tarqalishiga qarshi kurashish sohasidagi ma'muriy-yurisdiksiya faoliyatini takomillashtirish masalalarini o'rgangan⁵. J.M.Berger va J.Morgan ekstremistik tashkilotlarning ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyatini empirik jihatdan tadqiq etganlar⁶.

Internet tarmog'i imkoniyatlaridan foydalanib sodir etiladigan ekstremistik yo'nalishdagi huquqbuzarliklarni ko'rib chiqishda Internetning o'zi ikki tomonlama rol o'ynashini ta'kidlash lozim. Bir tomondan, axborot-telekommunikatsiya tarmoqlari ekstremizm g'oyalarini tarqatish vositasi va usuli bo'lsa, boshqa tomondan, uning oldini olishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, axborot-telekommunikatsiya tarmoqlari orqali sodir etilayotgan huquqbuzarliklar soni muqarrar ravishda ortib bormoqda, bu esa ularni kvalifikatsiya qilish, tekshirish va huquqbuzarlarni javobgarlikka tortishda ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Transport vositasining raqamli muhitini tartibga solishning tub muammosi shundaki, bort tarmog'i orqali tarqatilayotgan axborot ko'pincha umumfoydalanishdagi tarmoqqa chiqmaydi, ya'ni provayder darajasidagi an'anaviy bloklash choralari unga umuman yetib bormaydi. Boshqacha aytganda, transport vositasi ichidagi mahalliy axborot makoni hozirgi tartibga solish doirasidan tashqarida qolgan. Yevropa Ittifoqining terroristik kontentni tarqatishga qarshi kurashish to'g'risidagi 2021/784-sonli Reglamenti xizmat ko'rsatuvchi subyektlarga tegishli buyruq olingandan keyin bir soat ichida kontentni olib tashlash yoki unga kirishni cheklash majburiyatini yuklaydi⁷. Transport muhitida bunday muddat yanada qisqartirilishi lozim, chunki bu yerda auditoriya reys davomiyligi bilan chegaralangan va bir soatdan keyin ko'riladigan chora ko'pincha o'z predmetini yo'qotgan bo'ladi. Shu sababli tashuvchi zimmasiga bort axborot tizimida taqiqlangan kontent aniqlanganda uni zudlik bilan,

² Баранов В.В. Правовые и организационные основы деятельности органов внутренних дел по противодействию проявлениям экстремизма в глобальной компьютерной сети: дис. ... канд. юрид. наук. — М.: Академия управления МВД России, 2021.

³ Карданов Р.Р. Актуальные проблемы борьбы с экстремизмом в информационной среде // Пробелы в российском законодательстве. — 2023.

⁴ Опалев А.В. Современные информационные технологии как инструмент деятельности экстремистских и террористических организаций // Вестник Московского университета МВД России. — 2022. — № 5. — С. 187–190.

⁵ Корольчук А.В. Некоторые вопросы совершенствования административно-юрисдикционной деятельности в сфере противодействия распространению экстремизма посредством сети Интернет // Криминологический журнал. — 2023. — № 3. — С. 104–107.

⁶ Berger J.M., Morgan J. The ISIS Twitter Census. — Washington, D.C.: The Brookings Institution, 2015.

⁷ Regulation (EU) 2021/784 of the European Parliament and of the Council of 29 April 2021 on addressing the dissemination of terrorist content online.

ya'ni navbatdagi bekatga yetib borgunga qadar olib tashlash yoki tizim ishlashini vaqtincha to'xtatib turish majburiyatini yuklash maqsadga muvofiq.

Ayni paytda mazkur chorani qo'llashda mutanosiblik talabi alohida ahamiyat kasb etadi. Bort tizimini to'liq o'chirib qo'yish yo'lovchilarning axborot olish huquqiga aralashuv hisoblangani bois, u faqat kontentni nuqtali ravishda olib tashlash imkoni bo'lmagan hollarda qo'llanilishi, uning muddati esa huquqbuzarlik holati bartaraf etilgunga qadar bo'lgan vaqt bilan chegaralanishi lozim. Bundan tashqari, tizim ishlashi to'xtatilgan har bir holat to'g'risida vakolatli organ xabardor qilinishi va bu haqda tegishli hujjat rasmiylashtirilishi shart. Aynan hujjatlashtirish majburiyati texnik chorani huquqiy nazorat doirasiga kiritadi.

Mazkur sohaning yana bir asosiy muammosi – transport vositalarining texnik jihozlanishi bilan protsessual tartibga solish o'rtasidagi tafovutdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-59-son qarori bilan jamoat transportini videokuzatuv tizimlari bilan jihozlash yo'lga qo'yilgan⁸. Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 18-martdagi 116-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 20-bandiga ko'ra, tashuvchi avtobus, elektrobus va trolleybuslarning videokuzatuv tizimlari hamda audiovizual axborot beruvchi vositalarining soz holda ishlashini ta'minlashi shart⁹. Shunday qilib, minglab transport vositasi kuzatuv va aloqa tizimlari bilan jihozlangan, biroq ushbu tizimlardan olinadigan ma'lumotni ekstremistik yo'nalishdagi ma'muriy ish bo'yicha qayd etish va saqlab qolish vakolati hech kimga berilmagan. Texnik imkoniyat huquqiy imkoniyatdan ancha ilgari ketgan va bu holat huquqiy tartibga solishning texnologik rivojlanishdan orqada qolishining aniq ko'rinishidir.

Xorijiy qonunchilikda ushbu tafovut aynan protsessual kanal yaratish yo'li bilan bartaraf etilgan. Fransiya Transport kodeksining L.1632-2-moddasiga muvofiq yo'lovchi tashish transport vositalari va ko'chmas mulk obyektlarini muhofaza qilish maqsadida olingan tasvirlarni huquq-tartibot organlariga uzatish shaxs yoki mulkka tajovuz qilinishidan xavfsirash uchun asos bo'lgan holatlarda transportni tashkil etuvchi organ va transport xizmati operatorining qo'shma qarori asosida amalga oshiriladi; uzatish real vaqt rejimida bo'lishi mumkin va bunda u politsiya aralashuvi uchun zarur vaqt bilan chegaralanadi. Shu kodeksning L.1632-2-1-moddasiga ko'ra, bunday uzatishning shartlari oldindan tuzilgan bitimda belgilanadi hamda tasvirlarning uzatilishi mumkinligi to'g'risida joyida e'lon orqali xabardor qilish nazarda tutiladi¹⁰. Ushbu tartibga solish uch jihatdan namunali hisoblanadi: ma'lumot uzatish kanali oldindan hujjatlashtiriladi, muddat bilan chegaralanadi va yo'lovchilar bu haqda oldindan xabardor qilinadi. Buyuk Britaniyada 2025-yil sentabrida vokzallardagi videokuzatuv tizimlarini politsiyaning real vaqtdagi kirish imkoniyati bilan bog'lash bo'yicha qo'shimcha moliyalashtirish e'lon qilingan¹¹. Germaniyada Federal politsiya to'g'risidagi qonunning 27-paragrafi temir yo'l inshootlarida videokuzatuv olib borish, yozuvlarni saqlash muddati va ularni yo'q qilish tartibini belgilaydi, bunda ma'muriy huquqbuzarlik ishlari uchun maxsus istisno nazarda tutilgan¹².

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-59-son qarori. — URL: <https://lex.uz/acts/6386205>.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 18-martdagi 116-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom (2025-yil 13-maydagi 314-son qaror tahririda). — URL: <https://lex.uz/acts/6410844>.

¹⁰ Code des transports (France), art. L.1632-2, L.1632-2-1.

¹¹ See it. Say it. Sorted. gets refresh // Counter Terror Business. — 17.09.2025; New look, same message: See it. Say it. Sorted. — Department for Transport, 16.09.2025.

¹² Bundespolizeigesetz (BPolG), § 27.

Muammoning o'tkirligi vaqt omilida namoyon bo'ladi. Yozuvlarning texnik saqlash muddati odatda bir necha kun bilan cheklanadi, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish esa ekspertiza tayinlanganda haftalar davom etishi mumkin. Bu esa qayd etishdan qarorgacha bo'lgan zanjirda dalil bazasining vaqt omili sababli yo'qolishi xavfini keltirib chiqaradi. Xorijiy tajribada bu masala ma'lumotni saqlab qolish to'g'risidagi majburiy talab instituti orqali hal etilgan. Kiberjinoyatchilik to'g'risidagi konvensiyaning 16-moddasida saqlangan kompyuter ma'lumotlarini tezkor saqlab qolish instituti mustahkamlangan¹³. Yevropa Ittifoqining elektron dalillarni taqdim etish va saqlab qolish to'g'risidagi reglamentida saqlab qolish to'g'risidagi buyruq uchun oltmish kun, ma'lumotni taqdim etish uchun o'n kun, kechiktirib bo'lmaydigan hollarda esa sakkiz soat muddatlari belgilangan va mazkur qoidalar 2026-yil 18-avgustdan qo'llanila boshlaydi¹⁴. Bu me'yorlar bilan taqqoslaganda O'zbekiston qonunchiligida transport muhitidagi elektron ma'lumotni saqlab qolish uchun umuman muddat belgilanmagani ko'rinadi; muddatning belgilanmasligi esa cheklovning yo'qligini emas, huquqiy himoyaning yo'qligini bildiradi.

Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksni **291³-modda** ("Elektron ma'lumotlarni saqlab qolish to'g'risidagi talabnoma") bilan to'ldirish zarur deb hisoblaymiz. Taklif etilayotgan normaga ko'ra, umumiy foydalanishdagi transport vositasida yoki transport infratuzilmasi obyektida ekstremistik yo'nalishdagi ma'muriy huquqbuzarlik belgilari aniqlanganda, vakolatli mansabdor shaxs tashuvchiga yoki obyekt egasiga ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan videoyozuvlarni, navigatsiya va to'lov tizimlari ma'lumotlarini hamda bort tarmog'i loglarini saqlab qolish to'g'risida yozma talabnoma yuboradi. Talabnoma ma'lumotlarni o'zgartirmasdan va o'chirmasdan saqlab qolish majburiyatini yuklaydi, biroq o'z-o'zidan ularning mazmuni bilan tanishish huquqini bermaydi. Talabnomaning amal qilish muddati ish uchun ma'lumot zarur bo'lgan davr bilan chegaralanadi; muddat tugagach, talabnoma o'z-o'zidan bekor bo'ladi. Talabnoma faqat aniq ish doirasida va faqat shu ish uchun ahamiyatga ega ma'lumotlar hajmida beriladi, ularni umumiy kuzatuv maqsadida to'plash taqiqlanadi; saqlanayotgan ma'lumotlarga kirish qayd etib boriladi, talabnoma ustidan esa yuqori turuvchi mansabdor shaxsga yoxud sudga shikoyat qilinishi mumkin. Ma'lumotlarning yo'qolib ketish xavfi mavjud bo'lgan kechiktirib bo'lmaydigan hollarda talabnoma og'zaki shaklda bildirilishi mumkin, keyinchalik u yozma rasmiylashtiriladi. Mazkur norma huquqbuzarlikda ishtirok etmagan uchinchi shaxsning faoliyatini cheklagani bois Kodeksning ish yuritishni ta'minlash choralari bobiga joylashtirilishi lozim.

Raqamli muhitda sodir etilgan qilmish bo'yicha dalillarni qayd etish tartibi ham maxsus normalarni talab qiladi. Bayonnomada qo'shimcha ravishda axborot resursi yoki veb-manzil, qayd etish sanasi va aniq vaqti; foydalanilgan texnik vosita va dasturiy ta'minotning nomi hamda versiyasi; fayllarning hajmi, formati va xesh-summasi; bort tarmog'i kirish nuqtasining nomi va tarmoq manzili; huquqbuzarlik sodir etilgan vaqtdagi seans ma'lumotlari qayd etilishi lozim. Elektron ma'lumotning qayd etilgan xesh-summasi bilan keyinchalik hisoblangan xesh-summasi o'rtasida tafovut aniqlangan taqdirda, uning sabablari mutaxassis yoki ekspert

¹³ Convention on Cybercrime (ETS No. 185), 23 November 2001.

¹⁴ Regulation (EU) 2023/1543 of the European Parliament and of the Council of 12 July 2023 on European Production Orders and European Preservation Orders for electronic evidence in criminal proceedings.

ishtirokida tekshiriladi. Qonuniy nusxalash, saqlash yoki format o'zgartirish natijasida yuzaga kelgan hamda ma'lumot mazmuniga ta'sir etmagan tafovut elektron ma'lumotni dalil sifatida istisno qilmaydi; mazmunning g'ayriqonuniy o'zgartirilganligi aniqlangan taqdirda esa u ish bo'yicha dalil sifatida qabul qilinmaydi. Xalqaro standartlashtirish tashkilotining raqamli dalillarni aniqlash, to'plash va saqlash bo'yicha standarti ushbu tartibning metodologik asosi bo'lib xizmat qilishi mumkin¹⁵. Elektron ma'lumotlarni olish, nusxalash va qayta ishlashda shaxsning shaxsiy hayoti daxlsizligi va axborot xavfsizligi talablariga rioya etilishi shart.

Transport muhitida huquqbuzarni aniqlash quyidagi ma'lumotlar majmuiga asoslanadi: bort videoyozuvi; marshrut raqami, davlat raqam belgisi va navigatsiya loglari asosidagi joylashuv ma'lumotlari; chipta validatsiyasi vaqti va transport kartasi identifikatori; agar tarqatish bort simsiz tarmog'i orqali amalga oshirilgan bo'lsa, kirish nuqtasi va qurilmaning tarmoq manzili yoki xalqaro identifikatsiya raqami; aloqa operatoridan olinadigan, muayyan vaqt oralig'ida tarmoq manzili qaysi foydalanuvchiga berilgani to'g'risidagi ma'lumot. "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonunning 17-moddasiga muvofiq xodim ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish doirasida davlat organlaridan va boshqa tashkilotlardan zarur hujjatlar hamda materiallarni so'rash va olish huquqiga ega¹⁶. Biroq so'rovning asosli bo'lishi uchun xodim avval huquqbuzarlik faktini qayd etishi, so'ngra so'rov yuborishi talab etiladi; amaldagi qonunchilikda birinchi bosqich tartibga solinmagani sababli aniqlash jarayoni uzilib qoladi.

Bort Wi-Fi tarmoqlari orqali taqiqlangan manbalarga kirishni cheklash uchun huquqiy asos allaqachon mavjud. Ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, tarqatilishi taqiqlangan materiallar va manbalar ro'yxatiga 2026-yil 13-iyul holatiga ko'ra 1915 ta manba kiritilgan bo'lib, ularning 886 tasi Telegram, 405 tasi Instagram, 276 tasi Facebook resurslari hisoblanadi; ro'yxatning 20 tasi esa oflayn materiallar – kitob, ma'ruza, qo'shiq va matnlardan iborat¹⁷. Ya'ni bitta ro'yxat ham raqamli, ham jismoniy qatlamni qamrab oladi, ammo transport vositasidagi kirish nuqtasi darajasida uni qo'llash mexanizmi belgilanmagan. Fikrimizcha, transport sharoitida yechim kontentni tartibga solishda emas, balki kirish nuqtasi darajasida bo'lishi lozim, chunki tashuvchi kontentni yaratmaydi va uni baholash vakolatiga ega emas. U faqat o'zi taqdim etayotgan tarmoq orqali taqiqlangan manbaga kirishni texnik jihatdan cheklashi mumkin. Shu munosabat bilan quyidagi norma taklif etiladi: "Transport vositalarida va transport infratuzilmasi obyektlarida umumiy foydalanishdagi simsiz internetga ulanish nuqtalarini taqdim etuvchi shaxslar tarqatilishi taqiqlangan materiallar va manbalar ro'yxatiga kiritilgan resurslarga kirishni cheklash choralari ko'radi. Mazkur majburiyat aloqa operatori bilan tuziladigan shartnomada alohida shart sifatida nazarda tutiladi".

Yirik xalqaro platformalarga majburiyat yuklovchi xorijiy modellarga kelsak, Yevropa Ittifoqining Raqamli xizmatlar to'g'risidagi akti yirik onlayn platformalardan xavflarni

¹⁵ ISO/IEC 27037:2012. Information technology — Security techniques — Guidelines for identification, collection, acquisition and preservation of digital evidence.

¹⁶ O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi O'RQ-407-son "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonuni. — URL: <https://lex.uz/acts/3027843>.

¹⁷ Taqiqlangan kontent: Oliy sud tomonidan tarqatilishi taqiqlangan manbalar ro'yxati // Gazeta.uz. — 14.07.2026. — URL: <https://www.gazeta.uz/uz/2026/07/14/prohibited-content/>.

baholashni talab qiladi va jahon aylanmasining olti foizigacha jarima nazarda tutadi¹⁸, AQShda esa konstitutsiyaviy cheklovlar sababli davlat majburlovi o'rniga sanoat ittifoqining xesh-ma'lumotlar bazasiga asoslangan ixtiyoriy model qo'llanadi¹⁹. Fikrimizcha, mazkur modellarning platformalarga majburiyat yuklovchi qismi bizning huquqiy tizimimizga bevosita joriy etib bo'lmaydi, chunki yirik xalqaro platformalar milliy yurisdiksiyamiz doirasida ro'yxatdan o'tmagan. Biroq ularning ulanish nuqtasiga oid qismi, ya'ni internetga kirish imkonini beruvchi shaxsga nisbatan talab belgilash qismi to'liq qabul qilinishi mumkin.

Istiqbolli yo'nalishlardan biri – transport vositalari va obyektlarida ekstremistik tarkibdagi materiallarni sun'iy intellektga asoslangan monitoring tizimlari orqali aniqlashning ma'muriy-huquqiy asoslarini yaratishdir. Bunday tizimlar bort videokuzatuv, axborot ekranlari va ochiq tarmoq trafigida taqiqlangan kontent belgilarini avtomatik aniqlash imkonini beradi. Ayni paytda ularni joriy etish shaxsiy ma'lumotlar himoyasi kafolatlari tizimi bilan birga amalga oshirilishi shart: videokuzatuv va biometrik identifikatsiya shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish hisoblanadi, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'RQ-547-son Qonunida mustahkamlangan maqsadga muvofiqlik va minimallik prinsiplariga rioya etilishi lozim²⁰. Shu bois taklif etilayotgan barcha normalar quyidagi kafolatlar bilan chegaralanadi: chora faqat aniq ish doirasida va faqat mazkur ish uchun ahamiyatga ega ma'lumotlarga nisbatan qo'llaniladi, umumiy kuzatuv maqsadida qo'llanilishi taqiqlanadi; saqlab qolish talabnomasining muddati belgilangan; talabnoma ma'lumotni saqlashga majbur qiladi, ammo mazmuni bilan tanishish huquqini bermaydi; materialni qayd etish uning ekstremistik deb topilishini anglatmaydi²¹.

Ilgari surilayotgan normalarga nisbatan bildirilishi mumkin bo'lgan e'tirozlarni ham hisobga olish lozim. Saqlab qolish talabnomasi tadbirkorlik faoliyatiga aralashish, degan e'tirozga quyidagicha javob berish mumkin: talabnoma yangi ma'lumot yaratishni emas, mavjud ma'lumotni ma'lum muddat o'chirmaslikni talab qiladi, uning muddati chegaralangan, mazmuni bilan tanishishga huquq bermaydi va xavfsizlik jarayonlariga to'sqinlik qilmaydi. Ma'muriy jarayonni og'irlashtiradi, degan e'tirozga esa shuni qayd etish kerakki, taklif etilayotgan choralarning aksariyati yangi majburlov emas, balki mavjud imkoniyatni protsessual shaklga solishdir.

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi.

Birinchidan, transport vositasining bort axborot muhiti avtonom xususiyatga ega bo'lib, provayder darajasidagi an'anaviy bloklash choralari unga yetib bormaydi. Shu bois tashuvchi zimmasiga bort axborot tizimida taqiqlangan kontent aniqlanganda uni zudlik bilan olib tashlash yoki tizim ishlashini vaqtincha to'xtatib turish majburiyatini yuklash, mazkur chorani esa mutanosiblik, hujjatlashtirish va vakolatli organni xabardor qilish kafolatlari bilan chegaralash zarur.

Ikkinchidan, transport vositalarining texnik jihozlanishi (videokuzatuv, bort Wi-Fi) bilan protsessual tartibga solish o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish uchun Ma'muriy javobgarlik

¹⁸ Regulation (EU) 2022/2065 of 19 October 2022 on a Single Market For Digital Services (Digital Services Act).

¹⁹ Global Internet Forum to Counter Terrorism. Hash-Sharing Database. — URL: <https://gifct.org/hsdb/>.

²⁰ O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi O'RQ-547-son "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni. — URL: <https://lex.uz/docs/4396428>.

²¹ O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 30-iyuldagi O'RQ-489-son "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. — URL: <https://lex.uz/docs/3841957>.

to'g'risidagi kodeksga elektron ma'lumotlarni saqlab qolish to'g'risidagi talabnoma institutini (291³-modda) kiritish taklif etiladi. Fransiya modelining qo'shma qaror va majburiy ogohlantiruvchi belgilarga oid qismi milliy sharoitda to'liq tatbiq etilishi mumkin.

Uchinchidan, raqamli muhitda sodir etilgan qilmish bo'yicha dalillarni qayd etishning maxsus tartibi – xesh-summa, seans ma'lumotlari, kirish nuqtasi rekvizitlarini bayonnomada aks ettirish hamda xesh-summalar tafovutini tekshirish qoidalari joriy etilishi lozim. Bunda elektron dalil butunligining buzilishi bilan qonuniy texnik o'zgarishlar bir-biridan aniq farqlanadi.

To'rtinchidan, transport vositalarida va transport infratuzilmasi obyektlarida umumiy foydalanishdagi simsiz internet tarmoqlarini taqdim etuvchi shaxslarga sud tomonidan taqiqlangan manbalarga kirishni filtrlash majburiyatini yuklash maqsadga muvofiq. Yechim kontentni tartibga solishda emas, balki kirish nuqtasi darajasida bo'lishi lozim.

Beshinchidan, ekstremistik tarkibdagi materiallarni sun'iy intellektga asoslangan monitoring tizimlari orqali aniqlashning ma'muriy-huquqiy asoslari hamda shaxsiy ma'lumotlar himoyasi kafolatlari tizimi yaratilishi zarur. Barcha taklif etilayotgan choralar aniq ish doirasi, chegaralangan muddat, umumiy kuzatuv taqiqi va shikoyat qilish imkoniyati kafolatlari bilan birga joriy etilishi shart.